

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**THE TRANSFORMATION OF NATIONAL COSTUMES IN THE QASHQADARYO OASIS****Sherzod Iskandarov***Candidate of Historical Sciences, Associate Professor**Department of Social Sciences, Tashkent State Medical University**the Network Center for Retraining and Professional Development of Teaching Staff under Tashkent State Medical University**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Jilak, qapamat, jamalak, samo, muk, choriq, ishton, kiygich, top, yaktak, delog'ay, ostarli dress, women's chochvon, light industry, chemistry.

Received: 24.10.25**Accepted:** 25.10.25**Published:** 26.10.25

Abstract: This article analyzes the transformation of national costumes in the Qashqadaryo Oasis. At the beginning of the 20th century, the local population preserved traditional clothing, and while men's and women's attire largely retained ancient traditional forms, some new modern styles and elements influenced by Russian fashions were also adopted.

QASHQADARYO VOHASI MILLIY KIYIMLARNING TRANSFORMATSIYASI**Sherzod Iskandarov***Tarix fanlari nomzodi dotsent**Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası**Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayorlash va ularni malakasini oshirish tarmoq markazi**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Jilak, qapamat, jamalak, samo, muk, choriq, ishton, kiygich, to'p, yaktak, delog'ay, ostarli ko'ylak, ayollar chochvon, yengil sanoat, kimyo.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasi milliy kiyimlarning transformatsiyasi tahlil etilgan. XX asrning boshlarida voha aholisi kiyimlarida an'anaviylik saqlangan bo'lib, erkak va ayollar kiyimi asosan an'anaviy qadimiy bichimini saqlab qolishi bilan birga ayrim yangi zamonaviy bichim va rusumdagi o'rganilgan.

ТРАНСФОРМАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ КОСТЮМОВ В ОАЗИСЕ КАШКАДАРЬИ**Шерзод Искандаров***Кандидат исторических наук, доцент*

*Кафедра социальных наук Ташкентского государственного медицинского университета и Сетевой центр переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Ташкентском государственном медицинском университете
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Джилак, капамат, джамалак, само, мук, чорик, иштон, кийгич, топ, яктак, делогай, остарли платье, женский чочвон, лёгкая промышленность, химия.

Аннотация: В данной статье анализируется трансформация национальной одежды в оазисе Кашкадарьи. В начале XX века население оазиса сохраняло традиционную одежду: мужская и женская одежда в основном сохраняла древние традиционные формы, однако были также усвоены некоторые новые современные формы и элементы русской моды.

XX asrning boshlarida voha aholisi kiyimlarida an'anaviylik saqlangan bo'lib, erkak va ayollar kiyimi asosan an'anaviy qadimiy bichimini saqlab qolishi bilan birga ayrim yangi zamonaviy bichim va rusumdagi ko'ylaklar paydo bo'la boshlagan. Ayniqsa, XX asrning 30-40-yillaridan boshlab umum o'zbek milliy kiyimlari kabi voha kiyimlari ham o'ziga xos tashqi va ichki omillar, xususan, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, mafkuraviy jarayonlar, industrlashtirish siyosati, yengil sanoat va kimyo korxonalarida erishilgan yutuqlar, kiyimlar uchun zarur bo'ladigan matolarni fabrikalarda ishlab chiqarilishi, fabrikalarda tayyorlangan tayyor kiyimlarning vohaga kirib kelishi, mahalliy aholi kundalik turmush-tarziga zamonaviy texnologiyalarning jalb etila borishi hamda etnomadaniy aloqalar va savdo-sotiq aloqalarining takomillashuvi natijasida o'ziga xos lokal milliy xususiyat tarzda transformatsiyalashgan. Qolaversa, an'anaviy kiyimlarning konstruktiv-texnologik va kompozitsion qurilishida yangi usullar, bichimlarning kirib kelishi ularning keyingi taraqqiyotiga asos bo'lishi bilan birga milliy kiyimlar bilan o'zaro uzviylashib, ularning ajralmas qismlaridan biriga aylangan.

Qashqadaryo vohaning qo'yi qismida birinchi marta to'qilgan kiyim beqasam bo'lgan ekan. Keyinchalik ishton jiyda va yaktak burjli va yoqali va yoqasiz ko'ylaklar kirib keladi. Jilak, qapamat, jamalak, samo, muk, choriq, ishton, kiygich, to'p, yaktak, delog'ay, ostarli ko'ylak, ayollar chochvon va erkak kiyim alohida ajralib turgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida chochvonni asosan lo'li qavmiga tegishli to'quvchilar to'qiganlar. Asosan qariya momolar jilaklar taqishgan. Globalashuv jarayonida milliy kiyimlarga ham bir oz o'zgarishlar ta'siri bo'lgan. Ular qadimiy kiyimlardan farqlanibgina qolmay balki, ommolashib ketmoqda. Milliy an'anaviy kiyimlarning o'zgarishi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalariga o'z ta'sirni ko'rsatmoqda. Temirchilik, gilam to'qish, tandirchilik, kashtachilik, qalpoqchilik, yorchoq bo'lgan ko'p bor (keli mayda kelsa to'qmachilik bor ekan ipak gilam to'qish birinchi o'rinda turgan hozirgi ayolnik erkak bolalarning kiyimlar chopon to'qish birinchi darajali bo'lgan. Umuman olganda, voha aholisi an'anaviy milliy kiyimlarining

evolyusiyasi va transformatsiyasini tadqiq qilish shuni ko'rsatdiki, tadqiqot davrida erkaklarning kiyim-boshlari ayollarnikiga qaraganda ko'proq o'zgarishlarga uchragan bo'lsada, lekin aynan voha erkak kiyimlarida Respublikamizning boshqa xududlarga qaraganda milliylik ustun ahamiyat kasb etgan.

XX asr o'zbek milliy kiyimlarining evolyusiyasi va transformatsiyasi tadqiq qilinishi shuni ko'rsatiki, mazkur davrga kelib milliy kiyimlardagi an'anaviylik o'rniga zamonaviy kiyimlar tikila boshladi. Shu davr ichida yosh bolalar va o'rta yoshdagi odamlarning kiyimlarda o'zgarishlar sodir bo'ldi. Buning sababi Yevropa bichimda tikilgan kiyimlarni kiyish rasm bo'ldi va milliy kiyimlar faqatgina kekxa yoshli va qariyalar orasida saqlanib shu bilan birga marosimiy kiyimlarga aylandi. Vohada XX asrning birinchi yarimda kiyilgan marosimiy kiyimlar o'zining an'anaviy bichimi va ko'rinishi asosan saqlab qolgan edi. 70 yillarning oxiri 80 yillarning boshlaridan e'tiboran ayollarning to'y marosim kiyimlarida ayrim o'zgarishlar sodir bo'lgan. XX asr boshlarida qizlar kiyadigan kamzul va astarla nimcha kamzulchalar rasm bo'la boshlaydi. Ularning yuqori qismi baxmal yoki duxobadan, ba'zan ipak, beqasam yoki odmi ip gazlamalardan tikilgan.

Agar ayollar qiz farzandli bo'lishsa unda sochini o'rib yurishsa unda ikkita farzandli bo'lgan deb bilishgan ekan. Agar ikkita o'g'il bo'lsa, ham shunday yurishgan va qiz bola bo'lsa po'pak o'ralgan ekan.

Ayollar ko'ylagining yoqasi vertikal kesilgan bo'lib, ko'p joylarda butun bo'yiga gulla jiyak (tasma) tikilgan. Shahrisabz, Qarshi va Surxandaryoda jiyak ipak ip bilan but shaklida to'qilgan.

Yaktak chapon yoqasi ochiqsi bo'lgan uzun ko'ylak to'g'ri Buxoro artistiga o'xshaydi. Ba'zi ko'ylaklarning barcha tomonida yopilgan milliy an'anaviy kiyim bo'lgan. Vohadagi o'zbeklarda qisman bo'lsa hamki milliy kiyimdagi o'zga xoslik jihatlar saqlanib qolgan, chopon, chipkan, choriq bo'lgan poshish, silla xanmat kashta tikilgan. Keyingi davrlarda glabolashuv natijasida kiyim ko'ylak 50 yillardan boshlab Yevropacha ishton kirib kelishi bilan birga oshib bog'ich bo'lgan qozoq qirg'iz kiyimlar modani kiyinishlar kirib kelish jarayoni tezlashdi.

XX asrga kelib esa do'pi, chopon, jigda, kvanak, sala, chipkon, ayollarning kiyimlar esa, ko'ylak, pulam menisak, salla, etik, so'pi ko'ylaklar bo'lgan. Yevropalashgan sari jippir buruklar kirib kelgan ekan. Bobolarmiz keyigan kiyimlar "bobo ko'ylak" "bobo ishton" jilak, chopon, chikmon, har bir chikmonni tikishda, qo'yning junidan qilingan uning o'rma (shol) uchun 6 kg rangli jun ishlatishgan deb nomlashgan.

XX asrning boshlarida kiyimlarning old yopiq ko'ylaklar tikilgan choriq esa mol terisini oshlash natijasida tikilgan jilak, ayollarning kiyimlariga ko'z tegmasin deb munchiq va quroqlar tikilmoqda. Choriq ko'proq yerni haydashda oyoq kiyim sifatida kiyganlar. Yuqorida esalatib o'tilgan kiyimlarning o'rniga yangilari kirib kelib milliy kiyimlar asosida bichilmoqda kalta ishton, palto, shim, tirko va shunga o'xshash kiyimlar kirib kelmoqda. To'n jiyda belqars chopon muk jelak, ayol

keyingi ayol tepasiga ko'ydi. Uzun qilib ayollar sala o'rgan uzun chopon chikmon, choriq, muk, chekman va uyma yoqali keng yaktak chopon, guncha paxtadan qilinib oldi yopiq bo'lsa, hozirgi nimchaga o'xshash bo'lgan. 1960 yilga kelib esa etik kirib kelgan bo'lsa, 1954 yilgalardan boshlab kostyum kirib kelgan. Belbog' o'zbek va tojiklar tomonidan juda qadim zamonlardan beri e'zozlanib kelinadi va u milliy kiyimlarining azaliy ajralmas qismi hisoblangan.

O'zbek halqining an'anaviy milliy kiyimlardan belbog'ning taqilish Qashqadaryo vohasidagi o'zbeklarida bo'yinga osilib, uchlari ko'krakka tushirilgan belbog' o'ziga xos g'am-qayg'u va bu behalovat dunyodan voz kechishni anglatgan. XX asrning boshlarigacha u oddiy ko'chalik libosi sifatida kiyilgan bo'lsa, keyinchalik mursak motam libosi sifatida belbog' bilan kiyilgan. Ayrim ayollar uni to'yga yoki mehmonga borganda ham kiyganlar. Hozirgacha Toshkentda mursakni dafn marosimida tobut ustiga yopadilar.

O'zbek xalqning o'ziga xos lokal xususiyat jihatlari bilan dunyodagi boshqa xalqlardan keyinishlar bilan ajralib turadi. Bu to'g'risida elshunos olim A. Ashirovning ta'kidlashicha O'zbeklarda inson hayotining muhim uch bosqichida ham maxsus libos kiydirilganligiga amin bo'lamiz, barchasida libos doimo oq rangda bo'lgan va uning pastki qismi umuman qayrilmagan, chaqoloq, kelin hamda mayitga birinchi libos doimo marosimiy tarzda kiydirilgan.

O'zbek xalq milliy kiyimlarining XX asr boshlariga xos va ayrim hollarda hozirgacha saqlanib qolgan umumiy xususiyatlarni uch guruhga bo'lib tavsiflash mumkin:

a) madaniyatlar va texnologiyalar taraqqiyotiga oid qonuniyatlar, hudud tarixi hamda u yerda yashovchi xalqlar o'rtasidagi ko'p asrlik muloqatlar bilan bog'liq umum xududiy belgilar;

b) kiyimlarni avloddan-avlodga uzatuvchi etnik xalat bilan bog'liq bo'lgan etnobiriktiruvchi xususiyatlar. Bu xususiyatlar ko'pincha turli etnik guruhlar kiyimlaridagi o'ziga xos, bir xil, ko'rinishlarda, ya'ni libos bichimi, mato turi, kiyim funksiyasi va tikilishi termenologiyasining umumiyliги aks etadi;

v) har bir xalqning kiyish madananiyati umumiylik bo'lishi bilan birga unda o'ziga xos farqlanishlar ham mavjudligini ko'rsatuvchi lokal xususiyati. Bu ko'pincha madaniy aloqalar ta'siri, o'tmish ajdodlar an'analari yoki inoetnik ko'rinishlar bilan bog'liqdir. O'zbek xalqning milliy kiyimlar mintaqaning joylashiga qarab o'ziga xos tomonlar bilan ajralib turardi. Chunki vohada bir qancha urug' va elatlar yashab kelmoqda ularning ham o'zlarga xos jihatlari bilan farqlanadi.

XX-asrning 50-60 yillaridan boshlab vohada ham fabrikalarda ishlab chiqarilgan motalar ommaviylashgan. Ayniqsa 50-yillarda kristall mato, 60-yillarda krepdishinga turli bichimdagi ko'ylaklarni tiktirish ommalashgan. 70-yillarga kelib esa krepsatin, atlas, xonatlas, gulli chitlarning yangi nusxalari, satin, har xil gulli gulsiz rangli kremlinlar, polotno shoyi, marg'ilon shoyi, beqasamning yangi nusxalari, shifon baxmal, chiybaxmal, duxoba kabi matolar ommalashgan. Xalqona kiyimlarda etnik xususiyatlarning yo'qolishida aynan fabrikalarda ishlab chiqarilgan

matolarning keng tarqalishi, kiyimlarning tikish texnologiyasining o'zgarishi va unga shahar urfi (modasi) ning "halokatli" ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqning an'anaviy davom e'tib saqlangan, milliylik 1940-1950 yillarning boshidan milliy kiyimlar taraqqiyotida avvalgiday ikki yo'nalish saqlanib qolgan. O'zbek xalqning umum milliylikning o'rni hozirgi vaqtga kelib umumevropa madaniyati o'ziga xos shaklli bilan milliylikning uyg'unlashtirmoqda. Shuning uchun ham o'zbeklar orasida shim, jins, pijak, harbiy kiyimlarni kiyish, tor shimlar, yengil kitellarning kirib kelishi jarayoni tezlashdi.

O'zbekiston respublikasida urshidan keyingi yillardagi davrlarda bir qancha o'zgarishlar bo'ldi. Shu bilan birga kiyimlarda ham o'zga xos lokal xususiyatli o'zgarishlar jarayoni ustki va bosh kiyimga jiddiy e'tibor berildi. Shu sababdan ham 1952 yilda o'sha paytdagi Oliy hukumat organi Ministrlar sovetining "Ustki va bosh kiyimlar sifatini oshirish to'g'risidagi" maxsus farmoni ham chiqqan. Shundan so'ng Respublikkamiz miqyosida misli ko'rimagan, darajada kiyimlarmiz tarixida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Milliy kiyimlarmiz zamonaviylasha borishi Yevropacha kastyum-shimlarni, oldi yoqali kashtalangan milliy bichim asosidagi kiyimlarni kirib kelashiga yo'l ochildi.

Qashqadaryo vohasi o'zbek kiyimlari transformatsiyasida ko'rinadiki, kiyimlar shaklli, bichimi, ko'rinishi, tikilishi, matolari o'zgargani bilan ulardagi rang tanlanishi, milliylik, etnik xususiyatlar o'z ahamiyatini bugungi kungacha yo'qotmagan. An'anaviy halqimizning dunyoqarashi, xo'jalik yuritishi an'analari va maishiy turmush tarzi o'z ifodasini topgan bo'lib, kelajakda moddiy madaniyatimizning ulkan merosiga aylansa ajab emas. Umuman olganda, an'anaviy milliy kiyimlar transformatsiyasiga oid tadqiqot yakunida olib borilgan etnografik ekspeditsiyalar natijalariga asoslanib qo'yidagi taklif va tavsiyalarni amaliy ahamiyatga ega deb hisoblash mumkin.

Xulosa. qilib aytadigan bo'lsak, XX asrning davomida o'zbek milliy kiyimlarmizdagi o'zgarishlar jarayoni keksa avlodga mansub o'zbeklar milliy kiyimlarida o'ziga xoslik namunalarini saqlab qolgan. Bunday an'anaviy xususiyatlar avvalo kiyim-kechaklarning matolarida, andozalarida rang-buyoqlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Milliy mustaqillik qo'lga kiritilgan yillarda milliy qadriyatlar tiklanishi bilan yoshlarimiz o'rtasida ham istifodadan chiqib ketgan an'anaviy kiyimlar to'n, maxsi, kavush, doka, ro'mol, to'rdan to'qilgan do'ppi, iroqi do'ppilarni zamonoviy matolardan tayyorlab kiyish rasm bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kholikova, R. E., Narkulov, D. T., Abilov, U. M., Khudoykulov, A. B., Karimov, N. R., Iskandarov, S. A., ... & Niyozova, N. S. (2023). Impact of Renaissances in The History of Uzbekistan And Causative Factors of The Third Renaissance. Journal of Law and Sustainable Development, 11(12), e2518-e2518.

2. Iskandarov, S. A. (2023). HISTORIOGRAPHY OF THE LIFESTYLE AND ETHNOCULTURAL PROCESSES OF THE UZBEKS OF THE KASHKADARYA OASIS. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 3(10), 71-76.
3. Искандаров, Ш. А. (2023). Abu Rayhon Byeruniyning asarlarida zardushtiylik bilan bog'liq qarashlar (Doctoral dissertation, Xalq tabobati: tarixi, yutuqlar, istiqbollar).
4. Искандаров, Ш. (2021). О 'ZBEKISTONDA IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.
5. Искандаров, Ш. (2013). Ўзбекистон арабларининг этник ўзликни англашига доир айрим мулохазалар.
6. Abdiganievich, I. S. Views On Ethnonyms Of Arabics Living In Central Asia. World Bulletin of Social Sciences, 20, 90-93.
7. Бўриев, О., & Искандаров, Ш. А. (2023). АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙНИНГ ЭТНОГРАФИК МЕРОСИ. Журнал гуманитарных и естественных наук, (4 [1]), 182-189.